

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4

2025
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
523 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asoslari	385
Poyonov Bobir Bekturod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Ikki o'lchovli geofizik signallarni raqamli ishlashda XAAR tez o'zgartirish algoritmlari.....	403
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich, Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich	
Turizm infratuzilmasi va xizmat sifatini oshirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratish chora tadbirlari.....	410
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich, Xakimov Zoxid Norbo'tayevich, Yusupov Muxammadali Soxib o'g'li, Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li	
Korporativ boshqaruvda budjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish	420
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Enhancing labor productivity in industrial enterprises of developed countries: experiences and strategies	426
Abduxakimova Farangiz Sidikjon kizi	
Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali "Olmaliq KMK" ajda innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....	434
Inamova Farida Usmanjanovna	
Methodological problems of accounting of fixed assets	439
Kholbekov Rasul Olimovich	
Необходимость платежной системы.....	446
Сайфиддинов Илхом Файзиддинович	
Зеленое ipro как новый инструмент финансирования	451
Шахзод Сайдуллаев	
Инструменты фондового рынка в международной практике повышения инвестиционной привлекательности бизнеса	459
Юлдуз Усманова	
Модели устойчивого развития туризма: международный опыт и возможности адаптации в узбекистане.....	471
Сальникова Елена Александровна	
Внедрение антикоррупционных стандартов iso в узбекистане	478
Исмаилов Баходир Исламович, Зокиров Саидакмал Баходир угли	
Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi	483
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Трансформация банковского сектора узбекистана под влиянием цифровых технологий.....	488
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
Uy-joy fondini qulayligini modernizatsiya va rekonstruksiya orqali oshirish imkoniyatlari.....	493
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
Влияние технологии блокчейн на банковскую сферу	500
Амонова Хафиза	
Buxoro viloyatida suv tanqisligi sharoitida resurs tejamkor agrotexnologiyalar asosida agrobiznesni barqaror rivojlantirish masalalari	504
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Saidova Firuza Kamolovna	
O'zbekiston respublikasida demografik dividend olish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodlari	510
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari	515
Sharoxmatov Abdurahim Abdulamitovich	



Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb etish-taraqqiyot garovi.....	522
Karimova Komila Daniyarovna	

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INVESTITSIYA JALB ETISH-TARAQQIYOT GAROVI

Karimova Komila Daniyarovna

i.f.n., dots. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi, Toshkent O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar, kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari va kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari qiyosiy tahlil qilib chiqilgan. Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb etish bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik subyekti, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, investitsiya, korxona, xorijiy investitsiya.

Abstract: The article provides a comparative analysis of industrial products produced by small businesses, construction work by small businesses, agricultural, forestry and fishery products by small businesses, and services provided by small businesses. It also draws conclusions on attracting investment in small businesses and entrepreneurial activities.

Keywords: small business entity, agriculture, forestry and fisheries, investment, enterprise, foreign investment.

Аннотация: В статье дается сравнительный анализ промышленной продукции, производимой субъектами малого предпринимательства, строительных работ, выполняемых субъектами малого предпринимательства, продукции сельского, лесного и рыбного хозяйства, производимой субъектами малого предпринимательства, а также услуг, оказываемых субъектами малого предпринимательства. Разработаны также выводы по привлечению инвестиций в малый бизнес и предпринимательство.

Ключевые слова: субъект малого предпринимательства, сельское хозяйство, лесное и рыбное хозяйство, инвестиции, предпринимательство, иностранные инвестиции.

KIRISH

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotining poydevorini tashkil etadi. Ular yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun, kichik biznesni rivojlantirish va uning barqaror faoliyatini ta'minlash uchun sarmoyalar jalb etish juda muhimdir. Investitsiyalar kichik biznesning o'sishini, texnologiyalarga yangiliklar kiritishni, mahsulotlar va xizmatlarning sifatini oshirishni ta'minlaydi. Biroq, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishda bir qancha muammolar mavjud. Bu muammolar moliyaviy resurslarning cheklanganligi, huquqiy to'siqlar, bozorni to'g'ri tahlil qilishdagi qiyinchiliklar, marketing va menejmentni boshqarishdagi zaifliklar, shuningdek, risklarni boshqarishda tajriba etishmasligidan iborat. Shu bois, kichik biznesni rivojlantirish uchun investitsiya muhitini yaratish va ularni jalb qilish bo'yicha samarali siyosatni ishlab chiqish zarur. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati ulkan bo'lib, u iqtisodiyotning o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion loyihalarga yo'l ochish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu jarayon, o'z navbatida, jamiyatda iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga, iqtisodiy noaniqliklarni kamaytirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gerchikova I.N. fikriga ko'ra "...biznes ish, tadbirkorlik faoliyati sifatida ko'rib chiqiladi, u bozorda tovarlar va xizmatlarni iqtisodiy subyektlar o'rtasida almashish operatsiyalarini amalga oshirishga oid vazifalarni hal qilishga qaratilgan, va bu ish bozordagi amalga oshirish shakllari va usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi". Fikrimizcha, Gerchikova I.N. ning fikriga ko'ra, biznes nafaqat iqtisodiy faoliyatning bir turi, balki iqtisodiy subyektlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar almashinuvini amalga oshirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati sifatida ko'riladi. Bu jarayonning asosiy maqsadi, bozordagi tovarlar va xizmatlarni taqdim etish va qabul qilish, iqtisodiy subyektlar o'rtasida o'zaro almashuvni tashkil etishdir.

F.I. Shaxmatov va V.S. Nechiporenko fikriga ko'ra, biznes-bu foyda keltiradigan har qanday iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik esa - bu boshqaruv tizimi, foyda olishni maqsad qilgan o'ziga xos biznes, bu yerda asosiy harakatlantiruvchi subyekt ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalarini yaratadigan tadbirkordir. Fikrimizcha, F.I. Shaxmatov va V.S. Nechiporenko ning fikriga ko'ra, biznes va tadbirkorlik o'rtasida muhim farq mavjud. Biznes – bu foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatning umumiy tushunchasidir. Bunda tadbirkorlar o'z faoliyatini amalga oshirish orqali bozorda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradi va sotadi, natijada ular iqtisodiy foyda oladi.

Y.Shumpeter tadbirkorlik faoliyatining innovatsion konsepsiyasini davom ettirdi. U iqtisodiy va siyosiy muhitning holati tadbirkor uchun muhim deb hisoblagan. Olimning ta'kidlashicha, tadbirkorlikni rivojlantirish manbai ishlab chiqarish va aylanishning mavjud omillarining yangi kombinatsiyalari, shuningdek texnologik jarayondagi turli xil yangiliklar yoki yangiliklardir. Fikrimizcha, Y.Shumpeterning tadbirkorlik faoliyatining innovatsion konsepsiyasi iqtisodiyotning rivojlanishidagi tadbirkorlarning o'rnini chuqur tushuntiradi. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyati nafaqat iqtisodiy faollik, balki innovatsiya yaratish va mavjud resurslarni yangi va samarali tarzda tashkil etish jarayonidir.

R.Nguiri va R.Nelson o'z ishlarida tadbirkorlikka xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ifodalaganlar: tashabbuskorlik; qat'iyat; imkoniyatlarni qidirishga qaratilgan harakatlar; ma'lumot topish; ish sifatini va samaradorlikni yuqori darajada ta'minlashga yo'naltirish; muammolarni hal qilish qobiliyati; professionallik; vaziyatga ta'sir ko'rsatish qobiliyati; xodimlar farovonligiga g'amxo'rlik; mahsulot va xizmatlarning imijiga g'amxo'rlik. Fikrimizcha, R. Nguiri va R. Nelson tomonidan ta'kidlangan tadbirkorlikka xos bo'lgan xususiyatlar tadbirkorning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashda muhim omillar hisoblanadi. Ularning ta'kidlashicha, tadbirkorlik faqatgina iqtisodiy faoliyat emas, balki psixologik va boshqaruv ko'nikmalarini talab qiladigan murakkab jarayondir.

Gluxov V.V.ning fikriga ko'ra, kichik korxona deb shunday korxonalarga aytiladiki, ularning parametrlari qonunchilikda kichik deb belgilangan. "Kichik" tushunchasi – bu sifat jihatidan berilgan tavsifdir. Kichik korxonaning asosiy belgisi sifatida unda ishlaydigan xodimlar soni olinadi. Turli davlatlarda mavjud xo'jalik shart-sharoitlarini hisobga olgan holda, kichik korxonada ishlashga yo'l qo'yiladigan eng ko'p xodimlar soni qonun bilan belgilab qo'yiladi. Fikrimizcha, Gluxov V.V. tomonidan keltirilgan kichik korxona ta'rifi iqtisodiy tizimdagi kichik biznesni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Kichik korxona, aslida, faqatgina biznesning o'Ichamlari bilan bog'liq emas, balki uning ishlash xususiyatlari va bozor sharoitlariga moslashuvchanligi bilan ham ta'riflanadi.


Abchuk V.A. va Babayeva L.V. ham kichik tadbirkorlikni mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, xodimlarning o'rtacha soni sohaga qarab o'zgaruvchi korxona sifatida ta'riflashadi. Fikrimizcha, Abchuk V.A. va Babayeva L.V. ning kichik tadbirkorlikni ta'rifi juda muhim, chunki u kichik biznesning xilma-xilligini va uning turli sharoitlarda qanday faoliyat ko'rsatayotganini o'z ichiga oladi. Ularning fikriga ko'ra, kichik tadbirkorlikni mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar ta'riflash, xodimlarning o'rtacha soni asosida tashkil etiladi. Bu shuni anglatadiki, kichik biznesni faqatgina xodimlar soniga asoslanib emas, balki uning soha va faoliyatiga qarab o'zgaruvchanligini inobatga olish kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2024-yildagi ulushning 32,4% ga ko'tarilishi, hajmning 108,8 trln so'mga o'sishi bilan parallel tarzda sodir bo'ldi. Bu, sohaning nafaqat hajm jihatidan, balki uning iqtisodiyotdagi ahamiyati nuqtayi nazaridan ham sezilarli o'sishga erishganini anglatadi. Ulushning o'sishi, ehtimol, shu sohada ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish hajmi va talabning o'sishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi va jami hajmidagi ulushi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmning o'sishi umumiy iqtisodiyotda sezilarli rivojlanishni ko'rsatadi. 2020-yildan 2024-yilgacha 286,7 trln so'mgacha bo'lgan o'sish, iqtisodiy faoliyatning yirik hajmga ega bo'lganligini bildiradi. Ulushning o'zgarishi, 2024-yilda 32,4% ga yetganligi, soha yoki faoliyat turining iqtisodiyotni tashkil etuvchi asosiy qismlaridan biriga aylanganligini anglatadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi tahlil qilib chiqamiz. 2020-yildan 2024-yilgacha qurilish ishlari hajmi sezilarli o'sdi. 2020-yilda hajm 63,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 178,7 trln so'mga yetgan, ya'ni 114,8 trln so'mga o'sish kuzatilgan. Eng katta o'sish 2023-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda kuzatilgan. 2023-yilda hajm 159,3 trln so'mga yetgan va 2024-yilda 178,7 trln so'mga ko'tarilgan. Bu, qurilish sektoridagi faollikning ortishini va bozor talabining oshishini ko'rsatadi (2-rasm).




2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi.




2023–2024-yillardagi o'sishning ulushga qanday ta'sir qilganini ko'rib chiqamiz: qurilish ishlari hajmi oshganida ulush bir necha o'zgarishlarga uchraydi. 2023-yilda ulushning yuqorilanishi, ehtimol, kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish bozoridagi o'rni va ulushining ortganini bildiradi. 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi biroz pasaygan bo'lsa-da, u hali ham yuqori darajada qolmoqda. 2024-yilga kelib, hajmning o'sishi bilan birga ulushning kamayishi mumkin, chunki bu davrda umumiy iqtisodiy faollik ko'paygan va boshqa sohalarning hajmi ham oshgan bo'lishi mumkin. Qurilish sohasining o'sishi va uning umumiy iqtisodiy faoliyatdagi ulushining o'zgarishi, kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Bu soha iqtisodiyotda muhim rol o'ynashda davom etadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va ushbu sohadagi ulushlarini tahlil qilib chiqamiz. 2020–2024-yillar davomida mahsulotlar hajmi 253,2 trln so'mdan 444,7 trln so'mga oshgan. Bu 191,5 trln so'mlik o'sish bo'lib, 76% atrofida umumiy o'sishni anglatadi. 2024-yilda esa ulush 95,2% ga ko'tarilgan, ya'ni kichik tadbirkorlik subyektlari bu sohadagi mavqeini mustahkamlab bormoqda. Ulushdagi pasayish asosan yirik korxonalarning faollashuvi yoki kooperatsiya shakllarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo bu pasayish minimal va barqaror darajada qolmoqda (3-rasm).



3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi va jami hajmidagi ulushi.


2024-yilda esa ulushi 95,2 foizga ko'tarilgan, ya'ni kichik tadbirkorlik subyektlari bu sohadagi mavqeini mustahkamlab bormoqda. Ulushdagi pasayish asosan yirik korxonalarning faollashuvi yoki kooperatsiya shakllarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo bu pasayish minimal va barqaror darajada qolmoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi sektorida yetakchi rolni saqlab qolmoqda ulush har doim 94,6% dan yuqori bo'lgan. Ishlab chiqarish hajmi har yili oshmoqda, bu esa bu subyektlarning samaradorligi, innovatsiyalarni joriy etish, bozor talabi va davlat qo'llovi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2024-yildagi ulushning qayta ko'tarilishi esa kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligidagi ishtiroki barqaror va mustahkam ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo tovar aylanmasi o'sish tendensiyasi 2020-yildan 2024-yilgacha kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi aylanmasi deyarli har yili oshgan bu kichik biznesning iqtisodiyotdagi faolligi kuchayganini bildiradi. Ulushdagi o'zgarishlarda 2021-yilda ulush eng yuqori (86,2%) bo'lgan. Keyingi yillarda biroz pasaygan bo'lsa-da, baribir yuqori darajada saqlanib qolgan (4-rasm).



4-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va jami hajmidagi ulushi.

Umuman olganda, kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo sohasida faolligini davom ettirmoqda. Ulushning bir oz pasayishi, ehtimol, katta kompaniyalar yoki yangi iqtisodiy sharoitlarning ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, kichik biznesning ulushi hali ham yuqori bo'lib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

2020-yildan 2024-yilgacha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi juda katta o'sish ko'rsatgan. 2020-yilda 114,1 trillion so'm bo'lgan hajm 2024-yilda 466,5 trillion so'mga yetgan. Bu, kichik biznes tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bozorida sezilarli o'sishni ko'rsatadi. 2020 yildan 2022-yilgacha kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlar hajmidagi ulushi biroz pasaygan 2020-yilda 51,8% dan 2022-yilda 49,4% ga tushgan. Ammo 2023-yilda ulush yana oshgan (56,8%) va 2024-yilda yana biroz o'sib 57,1% ni tashkil etgan. Bu, kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar bozorida o'rining kuchayib borayotganini bildiradi (5-rasm).



5-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar bozorida hajmi va ulushi 2024-yilga kelib sezilarli darajada oshgan. Bu, kichik biznesning xizmatlar sohasida kuchayib borayotgan ishtirokini va ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bozorida ham raqobatbardoshligini ko'rsatadi. 2023–2024-yillarda



ulushning oshishi, kichik biznes uchun xizmatlar sohasida katta imkoniyatlar mavjudligini va bozorning diversifikatsiyalashuviga ishora qiladi. Kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi o'sishi, iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga moslashish va yangi biznes imkoniyatlarini yaratishning yaxshi misolidir.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb etishda bir qator imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin:

- Hukumat tomonidan kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga erishishini osonlashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bank kreditlariga kirish imkoniyatini kengaytirish, garov talablarini yengillashtirish, foiz stavkalarini optimallashtirish va kredit olish jarayonlarini soddalashtirish yo'nalishida islohotlar davom ettirilmoqda.

- Venchur kapitali va investitsion fondlar o'z e'tiborini istiqbolli kichik korxonalarga qaratmoqda, ularning innovatsion loyihalari va yuqori o'sish salohiyatini baholashga alohida ahamiyat bermoqda.

- Kichik biznes subyektlarida moliyaviy hisobot yuritish madaniyatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va moliyaviy faoliyatni barqarorlashtirish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash imkoniyati mavjud.

- Soliq tizimini soddalashtirish, qonunchilikni barqarorlashtirish, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini optimallashtirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash va investorlar uchun xavf-xatarlarni kamaytirish mumkin.

- Kichik biznes subyektlarini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash orqali ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va yangi imkoniyatlar yaratish mumkin.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati O'zbekiston iqtisodiyotining muhim bo'g'ini bo'lib, uning rivojlanishi iqtisodiy o'sish, bandlik yaratish va hududiy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi hajmi barqaror o'sib borgan, bu esa ularning iqtisodiy faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, kichik biznesga investitsiyalarni jalb etishda muhim muammolar mavjud bo'lib, ular moliyaviy, huquqiy, boshqaruv va axborot infratuzilmasi bilan bog'liq. Bu muammolarni hal etish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari, soddalashtirilgan moliyaviy vositalar, huquqiy islohotlar va tadbirkorlarni malakali tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks yondashuv zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR


Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etish - bu nafaqat iqtisodiy o'sish, balki jamiyatning farovonligini ta'minlashning muhim vositasidir. Kichik bizneslar innovatsiyalarni qo'llash, yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish, shuningdek, mahalliy va global bozorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Biroq, investitsiyalarni jalb qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun yengillashtirilgan moliyaviy va huquqiy tizimlar, risklarni boshqarish mexanizmlari, samarali bozor tadqiqotlari va malakali kadrlarni tayyorlash zarur. Davlat va xususiy sektorning hamkorligi, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlarni joriy etish bu jarayonni tezlashtirishga yordam beradi. Tadbirkorlikka investitsiya jalb etishning muvaffaqiyati, oxir-oqibatda, iqtisodiyotning yanada rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va ijtimoiy barqarorlikka olib keladi. Shuning uchun, kichik biznes va tadbirkorlikka investitsiyalarni jalb qilish, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatov B.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash amaliyoti va uni takomillashtirish. i.f.n. ilm. dar. olish uchun taqd. etil. diss. avtoref. – T.: BMA, 2010. – 27 b.
2. Mamatov B.S. Kichik biznesni moliyalashning chet el tajribasi //Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2005. -№4. – B. 40.
3. Малое предпринимательство в России: становление и факторы развития, обеспечение конкурентоспособности и эффективность, государственная поддержка и экономическая безопасность: монография / Забайкальский государственный университет. – Издание второе, переработанное и дополненное. – Чита: "ЗабГУ", 2021. – С. 5.



4. Murodova N.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: "AKADEMIYA NOSHIRLIK MARKAZI" DUK, 2016. – B. 17.
5. Murodova D.Ch. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. b. fals. dokt. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqd. etil. diss. – Toshkent, 2019. – 6 b.
6. Berkinov B.B. Oilaviy tadbirkorlik salohiyatini oshirish yullari. Monografiya – T.: Fan va texnologiya, 2019;
7. Beck, Thorsten. 2013. "Bank Financing for SMEs-Lessons from the Literature" National Institute Economic Review 225 (1). – Pp. 23-38.;
8. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertasiya, – T., 2017. – 138-b.,
9. Мамут М.В. Микрофинансирование: новые возможности финансово-кредитной системы // Банковское дело. – Москва, 2009. № 4. – С. 96-99;
10. Мазурина Т.Ю. Банковское инвестиционное кредитование: современное состояние, проблемы и перспективы развития // Денги и кредит. – Москва. 2013. №4. – С. 33;
11. Герчикова, И.Н. Менеджмент [Текст] / И.Н. Герчикова. – М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1995. – 480 с.
12. О развитии малого и среднего предпринимательства в РФ: федер. закон от 24.07.2007 № 209-ФЗ //СЗ РФ. – 2007. – № 31. – Ст. 4006.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100